TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Maxsudov Sherzod Solijonovich	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	877
Mahmudov Sarvar	
ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH	882
Zilola Rahmatova	
XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXAСТИK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV	887
Fozil Xolmurotov	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....	900
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	905
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich	
CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	911
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNINI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voiti o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdamiyovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSİYALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI

Taspanova Ayzada Kenjebayevna

Qoraqalpoq davlat universiteti

“Menedjment va iqtisodiyot asoslari” kafedrası dosenti

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Email: taspanovaayzada@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining aylanma mablag'larini boshqarish metodologiyasi, ularning moliyaviy barqarorlik va rentabellikka ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida aylanma mablag'larning optimal tarkibini aniqlash, likvidlik va foydalilik o'rtasidagi muvozanatni baholash, shuningdek, nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg'unlashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Maqola davomida statistik tahlil, moliyaviy koeffitsiyentlar usuli va korrelyatsion-regression tahlil orqali aylanma mablag'larni boshqarish samaradorligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyati, aylanma mablag'lar, likvidlik, rentabellik, boshqaruv metodologiyasi, moliyaviy tahlil, korporativ boshqaruv.

Abstract. This article examines the methodology of managing working capital in joint-stock companies and its impact on financial stability and profitability. The study focuses on determining the optimal structure of working capital, assessing the balance between liquidity and profitability, and integrating theoretical and practical approaches. The effectiveness of working capital management is analyzed using statistical analysis, financial ratio methods, and correlation-regression analysis.

Key words: joint-stock company, working capital, liquidity, profitability, management methodology, financial analysis, corporate governance.

Аннотация. В данной статье рассмотрена методология управления оборотными средствами акционерных обществ и её влияние на финансовую устойчивость и рентабельность предприятий. Особое внимание уделено определению оптимальной структуры оборотных активов, оценке баланса между ликвидностью и прибыльностью, а также интеграции теоретических и практических подходов. Эффективность управления оборотными средствами анализируется с использованием статистического анализа, метода финансовых коэффициентов и корреляционно-регрессионного анализа.

Ключевые слова: акционерное общество, оборотные средства, ликвидность, рентабельность, методология управления, финансовый анализ, корпоративное управление.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligi, rentabelligi va raqobatbardoshligi ko'p jihatdan ularning aylanma mablag'larini boshqarish samaradorligiga bog'liqdir. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarish jarayonining doimiy harakatda bo'lishini, mahsulot yetkazib berish va realizatsiya qilish siklining uzluksizligini ta'minlaydigan eng muhim moliyaviy resurslar hisoblanadi. Ularning yetarli hajmda shakllantirilishi, oqilona taqsimlanishi va qayta aylanish tezligining yuqori darajada saqlanishi korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida aylanma mablag'larni boshqarish metodologiyasi korxonaning likvidligini saqlash, ishlab chiqarish jarayonidagi tanaffuslarning oldini olish, shuningdek, foydaning maksimal darajasiga erishish imkonini beruvchi mexanizmlar majmuasini anglatadi. Bunda pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va tovar-moddiy xaziralar o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlash, moliyaviy oqimlarning muvozanatini saqlash hamda ortiqcha resurslarni samarali joylashtirish masalalari markaziy o'rinni egallaydi.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida aksiyadorlik jamiyatlarining soni ortib borayotgani, ularning faoliyatida korporativ boshqaruv tamoyillarining joriy etilayotgani aylanma mablag'larni boshqarish masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Mamlakatda ishlab chiqarish korxonalari uchun moliyaviy resurslardan oqilona



foydalanish, raqobatbardoshlikni oshirish va investitsion jozibadorlikni mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, aksiyadorlik jamiyatlarida aylanma mablag'larni boshqarish metodologiyasini ilmiy asosda takomillashtirish, xalqaro tajriba va zamonaviy moliyaviy boshqaruv yondashuvlari asosida tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aylanma mablag'larni boshqarish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda turli olimlar tomonidan nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Belgiyalik olim Arnold Deloof o'z tadqiqotlarida aylanma mablag'larni boshqarish darajasi bilan korxonaning rentabelligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini aniqlagan. U debitorlik qarzlari va tovar-moddiy zaxiralarning aylanish davri qisqargan sari korxonaning foydaliligi oshishini empirik tarzda isbotlagan.

Victor Richards va Eugene Laughlin esa likvidlikni tahlil qilishda "cash conversion cycle" — ya'ni pul aylanish davri modelini ishlab chiqqan. Ularning fikricha, aylanma mablag'larni samarali boshqarish jarayonida pul oqimlarining tez aylanishi likvidlikni saqlab qolish bilan birga, korxona daromadlilikini ham oshiradi. Bu yondashuv bugungi kunda ko'plab zamonaviy tahlillarning asosini tashkil etadi.

Naqd mablag'lar siyosatini ilmiy jihatdan asoslab bergan ilk olimlardan biri William Baumol bo'lib, u ishlab chiqargan "Baumol modeli"da korxonaning naqd pul balansini inventar nazariyasi asosida optimallashtirish mexanizmini taklif etgan. Keyinchalik Merton Miller va Daniel Orr ushbu modelni rivojlantirib, tasodifiy kesh oqimlari sharoitida optimal pul darajasini aniqlash imkonini beruvchi "Miller–Orr modeli"ni ishlab chiqqanlar. Bu yondashuvlar aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy oqimlarni nazorat qilishda keng qo'llanilmoqda.

Savdo kreditlarining (trade credit) aylanma mablag'lar siyosatidagi rolini Mitchell Petersen va Raghuram Rajan o'z tadqiqotlarida chuqur tahlil qilgan. Ularning fikricha, korxonalar, ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlari, moliyaviy institutlardan kredit olish imkoniyati cheklangan sharoitda, aynan yetkazib beruvchilardan olingan savdo kreditlari orqali aylanma mablag'larini moliyalashtiradilar. Bu esa aylanma mablag'lar strukturasi va tashqi moliyalashtirish strategiyasining muhim elementi hisoblanadi.

Korporativ boshqaruv va aylanma mablag'larni boshqarish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni Michael Jensen va William Meckling o'zlarining agentlik nazariyasi orqali izohlab bergan. Ularning fikricha, menejerlar va aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi (agency conflict) korxona moliyaviy siyosatini, jumladan, aylanma mablag'larni boshqarish mexanizmini ham bevosita shakllantiradi. Shuning uchun korporativ boshqaruv tizimining takomillashuvi aylanma mablag'larni boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ioannis Lazaridis va Dimitrios Tryfonidis esa o'z tadqiqotlarida "cash conversion cycle"ning komponentlari — ya'ni debitorlik qarzlari, kreditorlik majburiyatlari va zaxiralar aylanishining korxona rentabelligiga ta'sirini empirik tahlil qilgan. Ularning xulosalariga ko'ra, bu komponentlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash korxonaning moliyaviy barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ushbu ilmiy yondashuvlar aksiyadorlik jamiyatlarida aylanma mablag'larni boshqarish metodologiyasining nazariy va amaliy asoslarini shakllantiradi. Ular orqali korxona likvidligi, rentabelligi hamda moliyaviy barqarorligi o'rtasida optimal muvozanatga erishish mumkin. O'zbekiston sharoitida ushbu yondashuvlarni milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish, xususan, kredit infratuzilmasi, bozor sharoitlari va korporativ boshqaruv tizimi rivojlanish darajasini inobatga olish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida aksiyadorlik jamiyatlarining aylanma mablag'lari bo'yicha ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Moliya vazirligi hamda ochiq moliyaviy hisobotlardan olindi. Olingan ma'lumotlar dinamik qatorlar tahlili, moliyaviy koeffitsiyentlar usuli va korrelyatsion-regression tahlil yordamida qayta ishlanib, aylanma mablag'larni boshqarish samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi davrda rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida korxonalarning aylanma mablag'larini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq dolzarb muammolar, jumladan, inflyatsiya darajasining yuqoriligi, milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining balandligi, xomashyo importining yuqori ulushi, korxonalarning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasining pastligi va boshqa omillar mavjudligi kuzatilmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlarida aylanma mablag'larni boshqarish metodologiyasi — bu korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda faoliyat samaradorligini oshirish uchun muhim omildir. Aylanma mablag'lar, asosan, jamiyatning kundalik faoliyati uchun zarur bo'lgan pul resurslarini ifodalaydi. Ular qisqa muddatli aktivlar



va majburiyatlarni o'z ichiga olgani sababli, ularni samarali boshqarish kompaniyaning moliyaviy barqarorligi hamda operatsion uzluksizligini ta'minlaydi.

Aylanma mablag'larning boshqarilishi jamiyatning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ularning asosiy vazifasi — korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkonini yaratish hamda xo'jalik operatsiyalarining uzluksizligini ta'minlashdir. Aylanma mablag'lar tarkibiga, asosan, zaxiralar, debitor va kreditor qarzdorliklar, shuningdek, qimmatli qog'ozlar kiradi.

Kassa va bank mablag'lari pul aylanmasining asosiy qismini tashkil etadi. Ularni rejalashtirish va monitoring qilish jamiyatga zarur likvidlik darajasini saqlab turish imkonini beradi. Ushbu mablag'lar bank hisob raqamlarida saqlanadi va zarur paytda foydalanish uchun mavjud bo'lishi kerak.

AQSh, Germaniya va Fransiyada tijorat veksellari muomalasining rivojlanganligi hamda debitor qarzdorlikni inkassatsiya qilish amaliyotining mavjudligi kompaniyalar aylanma mablag'larini moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda O'zbekiston korxonalari aylanma mablag'larini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Korxonalar o'rtasidagi debitor va kreditor qarzdorlik hajmining kattaligi, pul oqimining sustligi, tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasining pastligi bu yo'nalishdagi dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Aylanma kapital hajmi nafaqat ishlab chiqarish jarayonining ehtiyojlari, balki tasodifiy omillar bilan ham belgilanadi. Shu sababli aylanma kapitalni doimiy va o'zgaruvchan turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Moliyaviy menejment nazariyasida "doimiy aylanma kapital" tushunchasining ikki asosiy talqini mavjud. Birinchi talqinga ko'ra, butun operatsion davr davomida zarur bo'lgan debitorlik qarzdorlik va ishlab chiqarish zaxiralarining o'zgarmas qismi aylanma kapitalni tashkil etadi. Bu — korxonaning o'rtacha vaqt parametrlari bo'yicha doimo ixtiyorida bo'lgan joriy aktivlar miqdoridir.

Ikkinchi talqinga ko'ra, doimiy aylanma kapital ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan minimal hajmni ifodalaydi. Bu yondashuv kompaniya faoliyatini davom ettirish uchun ma'lum miqdordagi minimal aylanma mablag'lar, jumladan, joriy hisob raqamidagi zaxira sifatida saqlanadigan pul mablag'lari qoldig'ini talab etadi. Keyingi bayonlarda aynan ushbu ikkinchi talqinga amal qilinadi.

O'zgaruvchan aylanma kapital esa jarayonning eng faol davrida yoki sug'urta zaxirasi sifatida zarur bo'lgan qo'shimcha joriy aktivlarni aks ettiradi. Masalan, mavsumiy savdo davrida qo'shimcha ishlab chiqarish zaxiralari sotuv hajmining yuqori darajasini saqlab qolishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sotish hajmi oshgani sari debitor qarzdorlik ham ortib boradi. Qo'shimcha pul mablag'lari xomashyo va materiallarni yetkazib berish hamda yuqori darajadagi ishlab chiqarish faoliyati davrida mehnat haqlarini o'z vaqtida to'lash uchun zarur bo'ladi.

Korxonaning uzoq muddatli ishlab chiqarish va samarali moliyaviy faoliyatini ta'minlash uchun yetarli bo'lgan aylanma mablag'lar hajmini va tarkibini, ularni qoplash manbalarini hamda ular o'rtasidagi nisbatlarni aniqlash — aylanma kapitalni boshqarishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Aylanma kapital past darajada bo'lganda ishlab chiqarish faoliyati talab darajasida ta'minlanmaydi. Natijada likvidlikni yo'qotish ehtimoli, ishlab chiqarish jarayonida uzilishlar va past foyda olish holatlari yuzaga keladi. Aylanma kapitalning optimal darajasida esa daromad maksimal ko'rinishga ega bo'ladi.

Aylanma mablag'lar hajmini ortiqcha oshirish natijasida korxona vaqtincha harakatsiz bo'lgan joriy kapitalga ega bo'ladi, bu esa moliyalashtirish bilan bog'liq ortiqcha xarajatlarning ko'payishiga olib keladi. Natijada foyda hajmi kamayadi. Shu sababli aylanma mablag'larni boshqarish strategiyasi likvidlikning yo'qolish xavfi va ishlab chiqarish samaradorligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashi zarur.

Pul mablag'lari, debitor qarzdorlik va tovar zaxiralarining mo'tadil darajasini saqlashga qaratilgan har bir qaror ularning rentabelligi va aylanma mablag'larning maqbul tuzilmasini hisobga olgan holda qabul qilinishi kerak. Aylanma mablag'lar hajmi va tarkibining nomutanosibligi likvidlikning pasayishiga yoki samaradorlikning kamayishiga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aylanma mablag'larni yetarli darajada moliyalashtira olmaslik riski quyidagi holatlar bilan bog'liq bo'ladi. Birinchidan, kreditor qarzdorlikning yuqori darajasi. Korxona moddiy zaxiralarni kredit asosida xarid qilganda, to'lov muddatlari bilan bog'liq kreditor qarzdorlik yuzaga keladi. Ba'zan korxona o'ziga hozircha kerak bo'lmagan hajmda yoki yuqori narxda zaxiralarni sotib oladi. Natijada zaxiralar qiymati katta, ammo ularni to'lash uchun zarur pul mablag'lari yetarli bo'lmay qoladi. Bu esa majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilmasligiga olib keladi.

Ikkinchidan, qisqa va uzoq muddatli qarz mablag'lari manbalari o'rtasidagi nomutanosiblik ham xavf tug'diradi. Uzoq muddatli manbalar odatda qimmatroq bo'lishiga qaramay, ba'zi hollarda likvidlik past bo'lganida katta daromad keltirishi mumkin. Ko'plab korxonalar rahbarlari uchun turli moliyaviy manbalardan samarali foydalanish hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda.



Uchinchidan, uzoq muddatli qarz mablag'larining passivlar hajmidagi yuqori ulushi korxona uchun qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltiradi. Bunday qarz mablag'lari texnik va texnologik yangilanishda muhim rol o'ynaydi, biroq ularning ortiqcha hajmi kapital tuzilmasining og'irlashuviga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, aksiyadorlik jamiyatlarining aylanma mablag'larini samarali boshqarish ularning iqtisodiy barqarorligi va likvidligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Boshqaruvning turli usullari va strategiyalarini to'g'ri qo'llash korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, aylanma mablag'larning samarali boshqarilishi esa jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Критический анализ, строгая дисциплина и личная ответственность — должны быть ежедневным правилом деятельности каждого лидера. — Т.: Узбекистан, 2017. — 26 б.
2. Тироль Ж. Теория корпоративных финансов. Пер. с англ. — М.: Дело, 2017. — 132–133 б.
3. Chanel-Reynaud G., Bloy E. La Banque et le risqué PME. — Presses Universitaires de Lyon, 2001. — 39–40 p.
4. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. — М.: Гелиос АРВ, 2012. — 352 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Критический анализ, строгая дисциплина и личная ответственность — должны быть ежедневным правилом деятельности каждого лидера. — Т.: Узбекистан, 2017. — 26 б.
6. Тироль Ж. Теория корпоративных финансов. Пер. с англ. — М.: Дело, 2017. — 132–133 б.
7. Chanel-Reynaud G., Bloy E. La Banque et le risqué PME. — Presses Universitaires de Lyon, 2001. — 39–40 p.
8. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. — М.: Гелиос АРВ, 2012. — 352 б.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>